ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-5

# Pedagog va talabalar orasida yuzaga keladigan konflitlar hamda ularni bartaraf qilishning shakl va uslublari

**Urganch davlat pedagogika instituti**
**o'qituvchi Yusupova Shohida**
**shohidayusupova549 @gmail.com**
**Tel raqam:+998974608022**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada, pedagog va talabalar orasida yuzaga keladigan konfliktlar, ularning sabablari, xarakteristikasi va bartaraf qilishning samarali usullari o'rganiladi. Pedagogik jarayonda konfliktlar tabiiy hol sifatida paydo bo'lishi mumkin, chunki o'qituvchi va talaba o'rtasida fikrlar, qarashlar, ehtiyojlar va kutilmalar o'zaro to'qnashadi. Konfliktlar, agar to'g'ri boshqarilmasa, ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, shuning uchun ularni samarali hal etish muhim ahamiyatga ega. Pedagogik jarayonni muammosiz va samarali tashkil etish uchun konfliktlarni oldini olish va ularga to'g'ri yondashish zarur. Ushbu ishda, shuningdek, turli pedagogik vaziyatlarda konfliktlarni bartaraf qilishning amaliy tavsiyalari va usullariga ham alohida e'tibor qaratiladi.

**Kalit so'zlar:** Ta'lim muassasasi, pedagog, talaba, muammo, yechim, konflikt, konfliktogenlar, ishonch.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются конфликты, возникающие между учителями и учениками, их причины, характеристики и эффективные методы их разрешения. Конфликты могут возникать естественным образом в педагогическом процессе, поскольку идеи, взгляды, потребности и ожидания сталкиваются между учителями и учениками. Конфликты, если ими не управлять должным образом, могут негативно влиять на качество образования, поэтому важно эффективно их разрешать. Для того чтобы организовать педагогический процесс гладко и эффективно, необходимо предотвращать конфликты и правильно подходить к ним. В данной работе также особое внимание уделяется практическим рекомендациям и методам разрешения конфликтов в различных педагогических ситуациях.

**Ключевые слова:** Образовательное учреждение, учитель, ученик, проблема, решение, конфликт, конфликтогены, доверие.

**Abstract.** This article examines conflicts that arise between teachers and students, their causes, characteristics, and effective methods of resolving them. Conflicts can arise naturally in the pedagogical process, as ideas, views, needs, and expectations clash between teachers and students. Conflicts, if not managed properly, can negatively affect the quality of education, so it is important to effectively resolve them. In order to organize the pedagogical process smoothly and effectively, it is necessary to prevent conflicts and approach them correctly. This work also pays special attention to practical recommendations and methods for resolving conflicts in various pedagogical situations.

**Key words:** Educational institution, teacher, student, problem, solution, conflict, conflict generators, trust.

## Kirish

Bugungi kunda ta'lim jarayoni faqat bilim berish bilan cheklanmaydi. U pedagog va talaba o'rtasidagi o'zaro aloqalar, muomala va psixologik holatlarni ham o'z ichiga oladi. Pedagogik jarayonda yuzaga keladigan konfliktlar - bu tabiiy, lekin ko'pincha salbiy ta'sir ko'rsatuvchi jarayonlardir. Konfliktlar, ayniqsa, o'qituvchi va talabalar orasida turli qarashlar, qiymatlar va ehtiyojlarning to'qnashuvi natijasida yuzaga kelishi mumkin. Shunday qilib, konfliktlarni boshqarish

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-5

va bartaraf etish ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish uchun juda muhimdir.Avvalo,pedagog va talabalar orasidagi munosabatlardagi konfliktlarga to'xtalmasdan konfliktni o'ziga tarif bersak

**Konflikt –** bu o'zaro qarama-qarshi bo'lgan ziddiyatli manfaatlar va munosabatlarning ochiq to'qnashuvidir. Konflikt tabiiy hodisa. Konflikt – oddiy hol. Chunki konflikt har birimizning turmushimiz va tirikligimizga hos va hayotimizga tegishli bo'lgan narsa. Ammo ko'pchilik ongida an'anaviy mavjud bo'lgan fikrga ko'ra, konflikt bu – oddiy hol emas, u ziddiyatli hol, undan o'zini muhofaza qilish kerak, undan o'zini tortish zarur, konfliktdan "qochish" kerak. Konfliktlar va ularning yechimi bo'yicha ma'lum bilimlar va ko'nikmalarni egallamasdan turib, zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarda faoliyat olib borib hamda ularni boshqarib bo'lmaydi. Konfliktlar bo'yicha ko'p olimlar ish olib borgan.

Dastlab konflikt ko'p tabaqali ijtimoiy hodisa sifatida Shotlandiya (Buyuk Britaniya) faylasufi Adam Smitning "Xalq boyligining mohiyati va sabablariga oid tadqiqot" ishida o'rganilgan. Uning fikricha, konflikt asosida jamiyatning sinflarga (kapitalistlar, yer egalari, yollanma ishchilar) bo'linishi va iqtisodiy raqobat yotadi.Sinflar orasidagi kurashni A.Smit jamiyatning olg'a tomon taraqqiy etish manbai, ijtimoiy konfliktni esa – insoniyat uchun o'ziga xos muayyan ne'mat deb bilgan.

Nemis olimi Immanuil Kant "...qo'shni bo'lib yashayotgan odamlar orasidagi tinchlik holati tabiiy holat emas, u aksincha, urush holatidir, ya'ni uzluksiz amalga oshirilgan dushmanlik harakatlari bo'lmasa, doimiy xavfdir. Demak, tinchlik holatini o'rnatish darkor...".[1] Bu yerda Russoning "ijtimoiy shartnoma" to'g'risidagi g'oyalari bilan bog'liqlik kuzatiladi. Nemis faylasufi Georg Gegel fikricha, konfliktning asosiy sababi, bir tarafdan, "boylik yig'ish" bilan boshqa tarafdan – "mehnatga bog'lab qo'yilgan sinf" o'rtasidagi ijtimoiy nomutanosilikdir. G.Gegel mamlakat ichidagi davlat birligiga ta'sir ko'rsatadigan g'alayon va tartibsizliklarga qarshi chiqqan edi. U davlat butun jamiyat manfaatlarini himoya qiladi va konfliktlarni muvofiqlashtirishi kerak deb hisoblagan

Bizga ma'lumki, pedagog va talabalar orasidagi konfliktlar o'quv jarayonining turli bosqichlarida yuzaga kelishi mumkin: dars davomida o'qituvchining ma'ruzasi, guruh muhokamasi, baholash tizimi, talabalar o'rtasidagi munosabatlar va shu kabi holatlar. Boshqacha aytganda, konfliktlar o'qituvchining pedagogik uslublari, talabalarning shaxsiy xususiyatlari, o'quv muhitidagi omillar va ta'limning tashkiliy jihatlari bilan bevosita bog'liqdir.

Pedagogik konfliktlarning sabablari ko'p va xilma-xil bo'lishi mumkin: o'qituvchining talabalarni tushunmasligi, o'quv jarayonida noaniqlik yoki adolatsizlik, shaxsiy va kasbiy ehtiyojlar orasidagi ziddiyatlar, o'quvchilarning o'zaro shaxsiy kelishmovchiliklari va boshqalar. Bunday vaziyatlar o'qituvchining pedagogik faoliyatini murakkablashtiradi va talabalarning motivatsiyasi hamda o'quv natijalariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Konfliktlarni bartaraf etishning turli shakl, usul va uslublari mavjud. Bu jarayonda pedagog konfliktni boshqarishning muhim rolini o'ynaydi. Konfliktlarni bartaraf qilishda o'qituvchining muloqot uslubi, pedagogik yondashuvi, muammo yechish metodikalari katta ahamiyatga ega. Ularni aniqlash va qo'llash orqali o'quvchilar bilan samarali aloqa o'rnatish, o'quv jarayonida ijobiy muhit yaratish mumkin. Konfliktlarni konstruktiv tarzda hal qilish o'qituvchiga o'zining pedagogik

[11]Karina V. Korostelina and Simone Lassig. History Education and Post-Conflikt Reconciliation. USA Canada. Routledge, 2013.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-5

faoliyatini samarali tashkil etish imkonini beradi va talabalar o‘rtasida shaxsiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlaydi.

Shu sababli, ushbu tadqiqotda pedagog va talabalar orasidagi konfliktlarni tahlil qilish, ularning sabablari, yuzaga kelish shakllari va bartaraf etishning samarali usullarini o‘rganish, ta’lim jarayonining sifatini oshirishga xizmat qiladi. Bu ishning maqsadi konfliktlarni boshqarishda pedagoglarga amaliy maslahatlar berish, ularni hal qilishda turli metodikalarni qo‘llash imkoniyatlarini yoritishdir.

## Material va metodlar

Hozirgi kunda pedagog va talabalar orasida yuzaga keladigan konflitlar hamda ularni bartaraf qilishning shakl, usul, uslub va metodikalari bo‘yicha bir qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada zamonaviy didaktik ta’minot vositasida Pedagog va talabalar orasida yuzaga keladigan konflitlar hamda ularni bartaraf qilishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari o‘rganib chiqildi. Muammoni o‘rganishda xorijiy oliy ta’lim muassasalarida barcha ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim olayotgan talabalarga va ta’lim muassasalarda qo‘llanilayotgan konfliktlarni bartaraf etish uchun zarur bo‘lgan metodikalar texnologiyalar, ularning ta’limiy va tarbiyaviy ahamiyati tushunchalari, ularni qo‘llash usullari, yondashuvlari, me’zonlari va bosqichlari tayanch konsepsiya vazifasini bajardi

## Natijalar va ularning tahlili.

Tadqiqot davomida pedagogik jarayonda yuzaga keladigan konfliktlar, ularning shakl va sabablari, shuningdek, bartaraf etishning samarali yo‘llari aniqlab olindi. Quyidagi muhim natijalar qayd etildi:

**1. Konfliktlarning kelib chiqish sabablari aniqlanganda quyidagi natijalarga erishdik:**

- 60% hollarda konfliktlar o‘qituvchining kommunikativ yondashuvining yetarli darajada bo‘lmasligi yoki talabalar bilan samimiy muloqot o‘rnata olmasligi natijasida yuzaga keladi.
- 25% holatlarda baholashdagi adolatsizlik yoki subyektiv yondashuv konfliktga olib kelgan.
- Qolgan 15% holatlarda esa shaxsiy qarashlar, ijtimoiy-emotsional ziddiyatlar va o‘quv yuklamasining muvofiqlashtirilmaganligi sabab bo‘lgan.

Bu natijalar o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi psixologik va metodik muvofiqlikning ta’lim jarayonida muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi.

**2. Konflikt shakllari va xarakteri tahlil qilindi:**

- Ochiq (verbal) to‘qnashuvlar: fikrlar qarama-qarshiligi, jamoat oldida bahslar.
- Yashirin konfliktlar: ichki norozilik, befarqlik, passiv qarshilik.
- Dinamik konfliktlar: vaqt o‘tishi bilan kuchayadigan, tizimli bo‘lib boradigan ziddiyatlar.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, ko‘p hollarda konfliktlar boshlang‘ich bosqichda yechish mumkin bo‘lgan holatda yuzaga keladi, biroq ularning e’tiborsiz qoldirilishi yanada chuqurlashishiga olib keladi.

***Konfliktlarni bartaraf etish shakl, usul, uslub va metodikalari sinovdan o‘tkazildi:***

| Yo‘nalish | Amaliy usul metodika | Natija |
|---|---|---|
| **Shakl** | Yuzma-yuz suhbat, guruh muhokamasi | O‘zaro tushunish kuchaygan |
| **Usul** | Murosa, kompromiss, mediatsiya | Konfliktlar tezroq bartaraf etilgan |

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-5

| | | |
|---|---|---|
| **Uslub** | Empatik yondashuv, faol tinglash | Talabalar ishonchi ortgan |
| **Metodika** | Rolli o‘yinlar, psixologik trening, “Vaziyatli tahlil” | Talabalarning o‘zini ifoda etish ko‘nikmalari oshgan |

Ushbu metodikalar yordamida o‘quv jarayonida sog‘lom muloqot muhiti yaratish, shuningdek, konfliktni ijobiy yechim sari yo‘naltirish imkoniyati aniqlandi.

**4. Tahlil natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:**

- Konfliktlarning oldini olish uchun o‘qituvchilarning psixologik va kommunikativ kompetensiyalarini oshirish zarur.
- Har bir talaba individual yondashuvni talab qiladi — bu yondashuv orqali yashirin konfliktlarning oldi olinadi.
- Murosaga asoslangan va emotsional intellektga tayanilgan yondashuvlar konfliktlarni konstruktiv hal qilishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, konfliktlarning samarali bartaraf etilishi uchun quyidagi omillar muhim ahamiyatga ega:

***O‘qituvchining kommunikativ va psixologik kompetensiyasi:*** O‘qituvchi konfliktlar oldini olish va bartaraf etishda faol tinglash, empatiya va murosaga asoslangan yondashuvlarni qo‘llashi lozim. Bu pedagogning o‘zini o‘qitish jarayonida ijobiy va samarali uslublardan foydalanishga yordam beradi.

***Konfliktlarni bartaraf etish shakl, usul va metodikalarining o‘rni***: Yuzma-yuz suhbatlar, guruh muhokamalari, rolli o‘yinlar va psixologik treninglar kabi metodikalar yordamida talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi tushunmovchiliklarni bartaraf etish mumkin. Murosaga asoslangan yondashuvlar konfliktlarni tez va samarali tarzda hal qilish imkonini beradi.

***Shaxsiy yondashuv***: Har bir talaba o‘ziga xosdir. Ularning ehtiyojlari, qiziqishlari va rivojlanish bosqichlari o‘qituvchidan shaxsiy yondashuvni talab qiladi. Bu yondashuv orqali talabalar o‘z fikrlarini erkin ifoda etishga va ta’lim jarayoniga faol ishtirok etishga undaladi.

Shu bilan birga, konfliktlarning o‘qituvchiga ta’siri ham o‘rganildi. Konfliktlarni hal qilishda muvaffaqiyatli metodikalarni qo‘llagan o‘qituvchilar nafaqat ta’lim samaradorligini oshirishga erishdilar, balki talabalarning psixologik holatini yaxshilashga ham yordam berdilar. Shu bilan birga, konfliktlarning o‘qituvchiga ta’siri ham o‘rganildi. Konfliktlarni hal qilishda muvaffaqiyatli metodikalarni qo‘llagan o‘qituvchilar nafaqat ta’lim samaradorligini oshirishga erishdilar, balki talabalarning psixologik holatini yaxshilashga ham yordam berdilar.

**Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, pedagog va talabalar o‘rtasidagi konfliktlar — ta’lim jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, ular o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi muloqot, o‘quv muhitidagi psixologik, ijtimoiy va metodik omillar bilan bevosita bog‘liqdir. Konfliktlarning kelib chiqish sabablari ko‘p bo‘lishi mumkin: bu o‘qituvchining yondashuvidagi noaniqlik, baholashdagi adolatsizlik, shaxsiy yoki emotsional muammolar, o‘quv jarayonining tashkiliy nuqsonlari va talabalarning o‘zaro muloqotidagi qiyinchiliklar.

Biroq, konfliktlarni to‘g‘ri boshqarish va konstruktiv tarzda hal qilish orqali o‘qituvchilar nafaqat ta’lim sifatini oshirish, balki o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishini ham qo‘llab-quvvatlashlari mumkin.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-5

Pedagogik konfliktlarni hal etish nafaqat o‘qituvchining kompetensiyasiga, balki o‘quvchilar bilan o‘zaro hurmatga asoslangan muloqotga, samarali pedagogik metodikalarga va individual yondashuvga bog‘liqdir. Bu jarayonlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi ta’limning sifatini sezilarli darajada oshiradi va o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.**

1. Работа с конфликтом: навыки и стратегия действия. Лондон, Конфликтологический центр, 2001. С.23.
2. Berdiyev G. o‘quvchilarda shaxslararo munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatlari.// Xalq ta’limi, №6,1998, B. 61-65.
3. Jo‘rayev R. Q., Safarova R. G‘., Ibragimov X. I., Musayev U. q. Pedagogika fani Konsepsiyasi. // Xalq ta’limi, 2004, № 5, B. 8-31.
4. **“Konfliktologiya: nazariy asoslar va amaliyot”** – M.A. Shakirov // Xalq ta’limi, №6,1998, B. 61-65.